

TURK ADABIY ASARLARINING O‘ZBEK ADABIYOTIDAGI O‘RNI

Xasanboyev Nodirbek

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2-kurs magistranti.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yangi paydo bo‘lgan Turkiya jumhuriyatidagi siyosiy iqtisodiy o‘zgarishlarning badiiy ijodga ko‘rsatgan ta‘siri, turk adabiy muhitidagi yangi yo‘nalishlar, shu davrda yozilgan asarlarning mavzu ko‘lami, ushbu asrda adabiyotdagi yangi janrlar tadqiq qilingan. Qadrdosh o‘zbek va turk adabiy muhiti o‘zaro solishtirilgan. Turk adabiy muhitining O‘rta osiyo adabiy muhitiga o‘tkazgan ta‘siri ochib berilgan.*

Annotation: *In this article, the impact of political and economic changes in the Republic of Turkey, which emerged at the end of the 19th century and the beginning of the 20th century, on artistic creativity, new directions in the Turkish literary environment, the scope of the works written in this period, the literature in this century new genres are explored. The dear Uzbek and Turkish literary environments are compared. The influence of the Turkish literary environment on the Central Asian literary environment is revealed.*

Kalit so‘zlar: *Nazm, nasr, gazeta, teatr, dramaturgiya, pyesa, ozodlik harakati, jadidlar, yosh turklar.*

Key words: *Poetry, prose, newspaper, theater, dramaturgy, play, freedom movement, Jadids, Young Turks.*

O‘tgan asrda O‘rta osiyoda sodir bo‘lgani kabi Turkiyada ham juda ham kata siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. XIII asrda bunyod etilgan Usmoniylar imperiyasi XX asrning boshlarida barham topdi. Birinchi jahon urushidan so‘ng Usmoniylar imperiyasi hududi urushda g‘olib davlatlar tarafidan bo‘lib olindi. Anadolu hududining taraqqiyparvar kuchlardan bo‘lgan Mustafa Kamol Otaturk boshchiligidagi ofiserlar guruhi Turkiya ozodligi uchun kurash boshladi. Turk xalqi ozodlik kurashchilarini qo‘llab-quvvatladi. Ozodlik uchun olib borilgan bu harakatlarning natijasi o‘laroq, Turkiya Xalq Respublikasi nomi ostida davlat tashkil etildi. Natijada har sohada bo‘lgani kabi, ta‘lim va adabiyot sohasida ham ulkan o‘zgarishlar ro‘y berdi. O‘lkada yuz bergan tarixiy voqealar bu davr turk adabiyotining asosiy tasvirlash obyekti bo‘lib xizmat qildi. Turkiyani bosqinchilardan tozalash, erk va demokratiya uchun kurashni aks ettirgan asarlar ko‘paydi. Ayniqsa, 1923 yilda Turkiya Respublikasi deb e‘lon qilingach, adabiyotda milliy ozodlik mavzuida asarlar yozish yanada kuchaydi.

XX asrning eng ko‘zga ko‘ringan ko‘ringan asarlari deya Adivarning «Qonli ko‘ylak» romani va milliy ozodlik haqida yozgan hikoyalari, Qora Osmon o‘g‘lining «Sadom va Gammaro», «Begona», Rashid Nuri Guntekinning «Ko‘m-ko‘k tun», «Bir oqshom fojeasi » kabi romanlari tan olindi. Bu asarlarda asosan yakka

qahramonlar sarguzashtlari hikoya qilingan. Ular Turk xalqini birlashtirishga harakat qildilar, marifat va madaniyat inqilobini amalga oshirish orqali mamlakatning chekka hududidlarida yashovchi oddiy insonlarning ham turmush sharoitini yaxshilash mumkin, degan niyatda edilar. Boshqa guruh turk yozuvchilari esa, yangi qurilgan Turkiya Jumhuriyati ijtimoiy hayotidagi jirkanch illatlarni, jumladan, jamiyatdagi urchib borayotgan ishsizlikning sabablarini, poraxo'rlik, tovlamachilik, amaldorlar tomonidan oddiy xalqqa nisbatan bo'layotgan zulmini, ayovsiz ravishda tanqidga oldilar. Saboxiddin Ali, Sadri Ertam, Suad Darvesh, Said Foik kabi bir qator demokratik yozuvchilar turk adabiyotida tanqidiy realizmning rivojlashishiga o'zlarining ulkan hissalarini qo'shdilar.

XX asrning 30-yillarida qishloq xo'jalik mavzusi turk adabiyotida yetakchi mavzulardan biriga aylandi. Badiiy adabiyotda dehqonlarning mashaqqatga to'la og'ir hayoti, ularning o'y-hayollari, orzulari turli tipik obrazlarda aks ettirildi. Sadri Ertemning «Charx to'xtagan payt» romanida turk mehnatkash oddiy xalqining og'ir hayoti, ularning o'z haq-huquqlari uchun kurashi tasvirlangan. XX asrning 30-yillarida turk adabiyotida ayollar ozodligi mavzusi ham eng ko'p e'tibor qaratilgan mavzulardan biriga aylandi. Shu qatorda turk ishchilari va ziyoli qatlamning jamiyatda tutgan o'rni haqida ham ko'plab asarlar yaratildi. Shu davr turk hikoyachiligining (novella) taraqqiyoti o'zining eng yuqori cho'qqisiga erishgan davr sifatida baholandi. Iste'dodli yozuvchi Sabohitdin Ali bu davrda o'zining ijod na'munalari bilan xalq e'tiboriga tushdi.

Sabahittin Ali Bolgariyada tavallud topgan. Yoshligidan chuqur ilm egallashga kirishdi. Istanbul, Berlin kabi Yevropa shaharlarda ta'lim oldi. U Germaniyada ta'lim olayotgan paytda Gitler tarafdorlari hokimiyatni egallashga kiritishga harakat qilayotgan edi. Sabohitdin Ali turk millatini haqorat qilgan bir nemis ofiserini do'pposlagani uchun Germaniyadan quvg'in qilinadi. Germaniyadan chiqib ketganidan keyin Turkiyadagi ko'plab maktablarida dars berdi, gazeta va nashriyotlarda faoliyat yuritdi. Sabahitdin Ali mashhur turk satiric yozuvchisi Aziz Nesin bilan o'zaro iliq ijodiy munosabatlar o'rnatdi. Bu mashhur ikki ijodkor hamkorlikda «Marko Pasha» nomli bilan satirik gazeta nashr qilishdi. Bu gazeta orqali ayni paytdagi siyosiy tuzumning jirkanch illatlarini ayovsir tarzda ochib beradigan maqolalar va materiallar nashr etib, oddiy xalqning qo'liga yetib borishini ta'minladilar. Ushbu tanqidiy maqolalari sabab ular tashkil qilgan nashriyot hukumat tomonidan yopib tashlandi. Sabohitdin Ali turk ma'murlarini tanqid qilib yozgan asarlari uchun bir necha marta qamoqxonalarda ham o'tirib chiqdi. Unga 1948 yili dushmanlari tomonidan suiqasd uyushtirib o'ldirildi. Yozuvchi o'zidan ko'plab hikoyalari, qissa va romanlar, dramatik asarlarni meros qilib qoldirdi.

XX asr 30-yillari turk she'riyatining yetakchi ijodkorlaridan biri Nozim Hikmat edi. Turkiy adabiyotida ko'p asrlardan buyon an'anasi bo'lib kelayotgan aruz vaznida ijod qilishdan chekinib, erkin vaznda ijod qilishni boshlab bergan ilk turk ijodkori sifatida tarixda qoldi. Erkin vaznda qofiya va hijolar o'lchamiga asosiy e'tiborni qaratmasdan, asosiy maqsad va fikrni aniq, hammaga tushunarli tarzda yetkazib

berish kerak. Bu vaznda intonatsiya asosiy o'rinni egallashi lozim. N. Hikmat turk she'riyatidagi ushbu tub burulishi tufayli novator shoir sifatida tarixda o'z nomini qoldirdi. Uning sh'eriyaatdagi ushbu yangiligi nafaqat turk adabiyotida, balki umumturkiy adabiyotga ham juda katta ta'sir ko'rsatdi. Shu jumladan, ko'plab o'zbek ijodkorlari ham N. Hikmatni ijod olamida o'zlarining ustozlari deb bilishdi. Ijodkorning «Inson manzaralari» nomli to'plami taniqli o'zbek shoiri Rauf Parfi tomonidanona tilimizga mohirona tarjima qilindi.

Ayni paytdagi turk adabiyotining Shuhratini dunyoga taratayotgan ijodkorlar sifatida Mustafo Sepitchi, Emine Ishansu, Sevinch Chokum, Mustafo Qutlu, Xakim og'li Ismoil, Urxon Pamuk, Kurshat Basharva bir qancha ijodkorlarni sanashimiz mumkin.

Umar Sayfiddin qisqagina, 36 yil umr ko'rgan bo'lsa-da, uni turk adabiyotining faxri deyishimiz mumkin. Ijodkorning 136 ta hikoyasi kiritilgan hikoyalar to'plami hozirda ham o'quvchilar tomonidan sevib mutoolaa qilinadigan kitoblar sirasiga kiradi. Umar Sayfiddin adabiyotning ijtimoiy vazifasi haqida shunday degan edi: "Adabiyotga faqat san'at deb qarashlariga men mutlaqo qarshiman. Yozuvchining burchi inson qalbida yovuzlikka qarshi nafrat tuyg'usini o'yg'otish, uni xar hil pastkashliklardan asrashdir".[2.48]

Turk va o'zbek millati o'rtasida bazi davrlardagi ters tushishlarga qaaramasdan, azaldan iqtisodiy, siyosiy aloqalar bilan bir qatorda adabiy aloqalar ham rivojlanib borgan. Adabiy aloqalar Alisher Navoiy davridayoq anchayin yuqori bosqichga ko'tarilgan edi. Xonliklar davrida esa, har soha kabi bu ikki qardosh xalqlarning o'zaro adabiy aloqalarida ham turg'unlik davri boshdan kechirildi.

O'zbek publisistlarining daslabki namoyandasi Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat Istanbuldga o'qish uchun borgan paytda turk matbuoti, maorifi, va o'quv jarayonlaridagi oldinga siljishlarni o'z ko'zlari bilan kuzatdi. Furqat Vatandoshlariga yo'llagan bir maktubida savdo sotiq bilan shug'ullanuvchi boy turklar va yuqori tabaqadagi turk amaldorlari zamonasining talabi bilan o'z farzandlarini nemis va fransuz tillarini chuqur egallashlari uchun sharoit yaratib berayotganliklarini ta'kidlab, bu jihatdan bizga o'rnak bo'la olishlarini aytib o'tgan edi. O'zbek va turklar o'rtasidagi aloqalarning yanada rivoj topishiga 1905-yilda ro'y bergan rus inqilobi va 1908-1913 yillarda bo'lib o'tgan Eon va Turkiya inqiloblari katta turki berdi. Bu davrda turkiston va Buxorga Rossiyaorqali Qirim va Kavkaz orti mamlakatlari matbuoti bilan bir qatorda Sharqning boshqa mamlakatlarning matbuoti va adabiyoti kirib kelib o'z tasirini o'tkazishni boshladi. Ushbu davrda Afg'onistonda "Siroj ul-axbor", Misrda "Chehranoma", "Al-hilol", Turkiyada "Sarvati Funun" nomli gazeta va jurnallarda atoqli turk yozuvchi va shoirlaridan: Tavfiq Fikrat va Muhammad Amin Yurdaqullarnin g'arb mustamlakachilik siyosatiga qarshi isyonkorlik ruhi bilan sug'orilgan (Tavfiq Fikrat "Rubobi shikasta", Muhammad Amin Yurduqul "Turk so'zi", "Ey turk, uyg'on!") asarlari nashr etilgan va xalq orasida tarqalgan bir paytda, 1905-1917 yillarda "Sadoyi Turkiston", "sadoyi farg'ona" kabi gazetalar, "Oyina" jurnali va ayrim bayozlarda Azarbayjon ma'rifatparvar

shoirilaridan Muhammad Hodi, tatar ma'rifatparvarlaridan Abdulla To'qay asarlari bilan bir qatorda yangi turk shoirlarining asarlaridan namunalar va qo'shni mamalkatlarning ijtimoiy va siyosiy hayotiga oid maqolalar e'lon qilina boshlandi. XX asr boshlarida Fitrat, Behbudiy, So'fizoda kabi o'zbek marifatparvarlarining ilm istagida Afg'oniston, Misr, Arabiston va Turkiyaga qilgan sayohatlari davomida u yerlardagi yangi adabiyot, matbuot va ijodiy muhit bilan tanishishdilar va o'sha yerlarda o'z asarlarini nashr ettirdilar. Sadridin Ayniy bu davrlarni o'z esdaliklarida quyidagicha tariflagan edi: "Rus-yapon urushi boshlandi. Bu urush sababli ora-sira kelib turgan "Tarjimon" gazetasi Buxorog'a kelib tarqala boshladi. Hindistondan "Hablul-matin", Misrdan "Chehranoma", "Parvarish" degan forsiy gazetalari kelib, urush xabarlarini uchun gazeta o'qimoqchi bo'lgan kimsalarga boshqa fikrlarni ham berdi. Lekin ahvol bunday turmadi. 1905 yildan 1908 yilga do'vur sharoit ko'p bor o'zgardi. Ushbu ikki yil muddatida turk, tatar, Istanbul, Misr, Hindiston matbuoti Buxoroda yaxshigina rivojlandi. Xususan, bu orada fors tilidagi "Sayohatnomai Ibrohimbek" Buxorog'a tarqaldi. Bu kitob Erondagi siyosiy va ijtimoiy ahvolni tanqid qilib yozilgan bolsa-da, aynan tanqid ostiga olingan jarayonlar Buxoroda ham yuz berayotgan edi. Shuning uchun bu kitobning mutolaasi ham Buxoroda ba'zi fikrlarning o'zgarishiga sabab bo'ldi. [2.36]

Yangi uslubda yozilayotgan asarlarga o'rgangan xalqning ehtiyojlarini qondirish uchun mamlakat hududida yangi kutubxonalar, nashriyotlar va matbaa uylari tashkil qilindi. Ushbu kutubxonalardan biri Buxorodagi "Marifat" kutubxonasi edi. Bu kutubxonada Istanbul va Rossiyada nashr qilingan vaqtli gazeta va jurnallardan tashqari ichki Rossiya va Bokuda nashr qilingan asarlar, jurnallar va gazetalari ham bor edi. Istanbuldagi yurtimizdan borgan talabalar yangi chiqqan asarlarni o'z vaqtidaa turli xil yo'llar bilan o'z vatanlaridagi o'qirmanlarga yetkazib turishar edi. Turkiyada nashr etilgan adabiyot na'munalarini yurtimiz yoshlari juda katta qiziqish bilan o'qir edilar. Istanbul universiteti professori, mashhur turkiyshunos olim Ahmet Zaki Validiy To'g'on o'zining "Bugungi turk eli (Turkiston) va yaqin tarixi" kitobida bu haqda eslab, shunday deb yozadi: "1913 yilda, ya'ni Cho'lpon hali 19 yoshlik vaqtlarida uning uyiga mehmon bo'lib borganimizda, u turk tarixiga doir asarlarni o'qir edi, keyin "Turk yurti" kabi turkcha nashrlarni kuzatdi. 1917-1918 yillarda siyosiy ishlarga aralashib, Orenburgda Boshqirdiston hukumati raisining kotibliigi vazifasida turdi... So'ngra adabiyot bilan shug'ullanib, birdan porladi. ...Cho'lpon o'zbek she'rlaridagi aruz vazni o'rniga turkcha hijo vaznini qo'llab, adabiy tilni go'zallashtirdi" [3.75]

Bu davrda birgina Fitratning o'zi Turkiyada o'qish bilan birgalikda fors va turk tillarida asarlar ("sayyohi hindi", "Munozara", "Sayha") yozib, ularni Istanbulda nashr ettiradi. Bundan tashqari Abdurauf Fitrat turk matbuotlarida o'zining siyosiy maqolalari bilan faol qatnashib turgan. Ana shulardan biri "Buxoro vaziri Nasrullobek parvonachi afandi hazratlariga ochiq maktub" maqolasi "Buxoroli Abdurauf" taxallusi ostida "Teurif Muslimin" jurnalining 1910-yil 2-sonida nashr etilgan. Bu asarlar asosan ma'rifatparvarlik xarakterida bo'lib, ular qadimiy

Buxoroning keyingi asrlarda tushib qolgan ijtimoiy-iqtisodiy qoloqlik va jaholat ham xurofotdan qutqarish, buning uchun bu yerdagi eski maktab va madrasalarni isloh qilish, yangi maktab va maorifni yo'lga qo'yish, zamonaviy islohotlar o'tkazish uchun qizg'in kurash ruhi bilan sug'orilgan edi" Turk ma'rifatparvarlarining inqilobiy ruhdagi asarlari Buxoroga turli yo'llar bilan yetkazib turilgan. Bu asarlar o'zbek ma'rifatparvar yoshlarining dunyoqarashiga kuchli ta'sir o'tkaza olgan.

XULOSA

Turk inqilobiy adabiyotini o'sha davrda endigina adabiyot olamiga kirib kelgan Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, Toshpo'lat Sadiy kabi ijodkorlar Nozim Hikmat, Urxon Osif kabi ijodkorlarning asarlaridagi inqilobiy ruhni to'laligucha saqlashga va ijtimoiy-siyosiy ruhni yanada kuchaytirib tasvirlashga harakat qilishgan.

O'zbek-turk adabiy aloqalariga sovetlarning bosimi to Mustaqillik qo'lga kiritilgunga qadar davom etdi. Mustaqillik qo'lga kiritilgandan so'ng o'zbek ijodkorlari boshqa xalqlar ijodkorlari qatori turk ijodkorlari bilan ham amin-erkin ijodiy aloqaga kirisha oldilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.Turdiyev. Hayotbaxsh aloqalar // "Jahon adabiyoti" jurnali, 2011 yil, 1-son;
2. Садриддин Айний. Эсдаликлар.8-жилдлик.5-жилд. «Тошкент» бадиий адабиёт нашриёти, 1965;
3. А. Zaki Validiy To'g'on "Bugungi turk eli (Turkiston) va yaqin tarixi" Istanbul, I jild, 1981 yil;
4. А. Avloniy. Tanlangan asarlar. Т.: "Ma'naviyat"-2009. 2-jildlik. 1-jild. В-100;
5. Садриддин Айний. Эсдаликлар.8-жилдлик. 6-жилд. «Тошкент» бадиий адабиёт нашриёти, 1965